Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан	1250
Эркинов Шахзод Баходир ўгли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish	1261
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	1281
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati	1284
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari	1289
Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari	1294
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollari ta'minlash omillari.....	1300
X. I. Boyev	



Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1333
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi"ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlarini	1337
Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li	
Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1343
Muminov Shohjahon Suyun ugli	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1359
Arifxanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	
Mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari.....	1370
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishning uslubiy asoslari.....	1375
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari.....	1381
Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Karimov G'ayratjon Toxir o'g'li	
"O'zneftgaz" AK tizimidagi korxonalarda joriy aktivlarning sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sirini perespektiv tahlili.....	1386
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning konseptual asoslari.....	1392
Teshayev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Boltayeva Mohichehra Sharipovna	
"Xufiyona iqtisodiyot"ning jamiyatga ta'siri	1397
Mirzayev Zarshed Mirzayevich, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Kichik va o'rta biznes subyektlarini tadbirkorlik qobiliyatini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari....	1400
Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari	1404
Beknazarova Nilufar Tulkinovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning o'rni.....	1407
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna	
Tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayoni, undagi muammolar va ularni yechish yo'llari	1411
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
Oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari va natijalari.....	1417
Umarova Xilola Uktamovna	
Korxonalar faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning afzallik va kamchiliklari.....	1426
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda xorij mamlakatlarining tajribasi.....	1430
Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich	
Katta ma'lumotlar (BigData) davrida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni tahlil qilish.....	1434
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Umarova Go'zal Sabirovna	
Investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.....	1437
Isakov J. Ya.	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili.....	1444
Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich	
Цифровизация страховой сферы в Республике Узбекистан.....	1449
Шерматовна Ирода Ойбековна	



TEMIR YO'L TRANSPORTIDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING RETSEPTIV TAHLILI

Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili qalamga olingan. Muallifning e'tiroficha, temir yo'l va uning iqtisodiy faoliyati mamlakatlarning qudratini hamda texnologik ravnaqini belgilovchi mezon sifatida taraqqiy etib borishi davomida xizmatlar va ularning turlari ko'payib borgan, xizmat ko'rsatish faoliyatini alohida tariflarga, o'lchov me'yorlariga hamda tasniflarga bo'lishga yetaklagan.

Kalit so'zlar: temir yo'l, transport, xizmat ko'rsatish, texnologik ravnaq, yo'l iqtisodiyoti, kundalik ehtiyoj.

Abstract: The article contains a prescriptive analysis of the development of the service process in railway transport. According to the author, during the development of the railway and its economic activity as a criterion determining the power and technological development of the countries, services and their types have increased, service activities have been divided into separate tariffs, measurement standards and classifications.

Key words: railway, transport, service, technological development, road economy, daily need.

Аннотация: В статье содержится нормативный анализ развития процесса обслуживания на железнодорожном транспорте. По мнению автора, в ходе развития железной дороги и ее хозяйственной деятельности в качестве критерия, определяющего мощь и технологическое развитие стран, увеличились услуги и их виды, были выделены отдельные тарифы, стандарты измерений и классификации.

Ключевые слова: железная дорога, транспорт, сервис, технологическое развитие, дорожное хозяйство, повседневная потребность.

KIRISH

Jahon mamlakatlari bo'ylab yuk tashish xizmati xalqaro iqtisodiyot uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi, bu o'z navbatida, global miqyosda xizmatlarni xarid qilish orqali jo'g'rofiy jihatdan ixtisoslashuv va sanoatni yanada rivojlantirish imkonini berdi. Ushbu nashr loyiha va g'oyalarni aniqlash, shuningdek, barqaror transport tizimi doirasida temir yo'l va daryo transportini tahlil qilishga uslubiy yondashuvni ishlab chiqish maqsadida submintaqadagi transportni ko'rish masalalari muhokamasiga katta hissa qo'shmoqda ^[2].

Iqtisodiy nuqtai nazardan, transport tizimi va uning xizmatidan foydalanish megapolislar uchun katta ahamiyatga ega. Ular bir paytning o'zida yuqori va past, shuningdek, o'rta daromadli mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni rivojlantiruvchi va kengaytiruvchi manbalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan shahar transporti aholi hayot tarzi farovonligi uchun zarur bo'lgan mehnat bandligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, shu bilan bir qatorda, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi ^[2]. Shu bois mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi va har bir kishining kundalik ehtiyojlariga bevosita ta'siri transport tizimisiz to'laqonli sanalmaydi.

Transport sanoati vositalari shaharlardagi yo'lovchilar uchun yuqori sig'imli, yuqori tezlikdagi jamoat transporti turlari bo'lganligi sababli, shahar temir yo'li (metro va shahar atrofidagi temir yo'l), yengil temir yo'l va avtobus tezkor tranziti (BRT) kabi yuqori sig'imli, maxsus yo'l jamoat transporti tizimlari shahar tranzit strategiyalari uchun juda muhimligini namoyon etadi. Ularga shaharning uy-joy qurilishi, yerdan foydalanish va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha qarashlari va maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan yaxlit jamoat transporti tarmog'ining bir elementi sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Temir yo'l transporti xizmati iqtisodiyot nazariyasi va uning ta'limot sifatida talqin etilishidan yiroq soha ko'rinishida vujudga kelgan bo'lib, temir yo'llarning iqtisodiy xususiyatlari va mazkur tarmoq bilan bevosita bog'liq bo'lgan muammolar iqtisodiyotning evolyutsiyasiga, shuningdek rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi va alohida fan sifatida tadqiq etila boshlandi. Bu o'z navbatida zamonaviy sanoat tashkiloti (ST) iqtisodiyotidagi ko'plab temir yo'l sanoati bilan bog'liq muammolar va ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar negizida ajralib chiqdi.

Ko'plar e'tirof etilgan hududiy manzillarda turli bozorlarga turlicha xizmat ko'rsatadigan, shu bilan bir qatorda yirik hajmdagi pul maablag'ini talab qiladigan strategik operatsiyalarning asosiy texnologik faoliyati ishlab chiqarish jarayonidagi murakkab va operativ boshqaruv qarorlari, yuk tashuvchilar va buyurtmachilar o'rtasidagi nizolar va tegishli hukumat siyosati aralashuvi temir yo'q xizmati faoliyatini iqtisodiy nazariy jihatdan tizimlashtirish hamda strategik taraqqiy ettirishni taqozo etdi.

Temir yo'l transporti xizmatining iqtisodiyoti va zamonaviy sanoat tashkilotlar o'rtasidagi mutanosiblikda olib boriladigan faoliyatni temir yo'l transporti iqtisodiyoti evolyutsiyasida uning resurslarni unumli boshqarish va yuk tashishga tegishli nazariyalarga asoslanadi. Xususan 1850-yilda AQSh iqtisodchi olimi Dionisius Lardner tomonidan temir yo'lnin iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, uning texnologik jihatdan boshqa sanoat tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatiga ko'magi va ijobiy ta'siri, uning asosida iqtisodiyotni rivojlantirish yuzasidan xizmat turlarini yoritgan [3]. U o'zining ilmiy-nazariy qarashlari ostida temir yo'lining sanoat iqtisodiyoti rivojlanishidagi ahamiyati va zarurati yuzasidan infratuzilmaviy imkoniyatlari hamda ustunliklarni alohida e'tirof etgan holda iqtisodiyotning asl masalasi sanalmish tejamkorlikka asosan-og'ir sanoat ishlab chiqarish faoliyatidagi xarajatlarni kamaytirishga, ishlab chiqarish unumdorligi hamda iqtisodiy tavakkalchilikni so'ndirishga intiladigan transport yo'l xizmati faoliyati va uning san'atidagi har bir o'zgarish yoki takomillashuv mamlakatning milliy iqtisodiyotidagi iste'mol va ishlab chiqarishni rag'batlantirish, aholi boyligini va turmush tarzini yaxshilash maqsadida uning mutaxassislarini oshirish, texnik jihatdan takomillashishi uchun davlar tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashi lozimligini ta'kidlab o'tgan [3].

1865-yilda ingliz iqtisodchi olimi E.Chedvik temir yo'l iqtisodiyotini rivojlantirish uchun investitsion jozibadorlikka muhtojmasligig alohida urg'u bergan, unda xizmat ko'rsatish faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozimligini, shu bilan bir qatorda, uning insonlarni tashishda sinflarga va qulayliklarga ajratgan holda tizimlashtirishning iqtisodiy imkoniyatlarini yoritgan [4]. Buning asosida ko'plab mamlakatlar sanoat tarmoqlari orasida temir yo'lni ocha boshlashgan, jumladan, Yaponiya, Korea, Xitoy, O'rta Osiyo hamda Uzoq sharq mamlakatlari temir yo'llarini barpo etishdi.

A.M.Vellington ismli ingliz iqtisodchi olimi tomonidan 1887-yilda temir yo'llarni joylashtirishning iqtisodiy nazariyasini ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra eng oqilona xarajatlarni ta'minlash maqsadida temir yo'llarni barpo etishni qat'iy nazorat qiluvchi va uni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi sharoitlarni baholash, uni tahlil qilish batafsil keltirilgan bo'lib, uning avtomobilsozlik, tayyorasozlik, mashinasozlik singari asosiy yetakchi tarmoqlarni texnik-iqtisodiy jihatdan ta'sirini to'laqonlilikini ta'minlash har bir mamlakatga tashuvchi transport vositalari orqali kirib kelishi borasida ko'plab maslahat va ko'rsatmalar berilgan [5].

Artur Hedli tomonidan 1865-yilda "Temir yo'l orqali tashish: tarixi va qonunchiligi" deb nomlangan risolasi AQSh va Buyuk Britaniyada nashr etilganidan so'ng xususiy temir yo'llarini qurish va undagi xizmatlarni oshirish maqsadida raqobatbardoshlikni ta'minlash va xorij tajribasiga doir ma'lumotlarni mutasaddi tadbirkorlar uchun yo'riqnoma vazifasini o'tagan [6]. Hedli o'zining risolasida iqtisodiy yondoshuviga ko'ra e'tirof etgan masalalar temir yo'l xizmatlari va uning tariflariga doir bo'lib, uning samaradorligini hisoblash usullari bilan nargalikda o'z risolasini yoritgan. Bu o'z navbatida temir yo'l iqtisodiyotidagi keskin o'zgarishlar va uning qurilishi bilan bog'liq diplomatik aloqalarga yetaklagan. Bu borada u o'zining risolasida 1894-yilda Ch.Kuli AQSh temir yo'lining texnik parametrlari, jo'g'rofiy e'tiborga olish lozim bo'lgan jihatlar, uning mexanik va fizik xususiyatlari asosida iqtisodiy muhitga ta'siri borasidagi fikrlarini klassifikatsion ifodasini topdi [7]. Shuningdek, temir yo'l iqtisodiyotiga asos solishda alohida o'ringa egaligini hamda bunda temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish uchun xizmar ko'rsatish byurolarini tashkil etishga bo'lgan munosabatni o'zgarishiga turtki bo'lgan. Shu asnoda temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish faoliyati rivojlanib borgan.

Temir yo'l transporti xizmati iqtisodiy jihatdan nechog'lik kerakli infratuzilma ekanligini amalda sinab ko'rgan xalq sanoat tashkilotlari atrofida safi kengayib, asosiy maqsadi kapitalni uzluksiz aylanmaviy daromadiga ega bo'lish sifatida mukhlilik shaklini boshqarishda yangi shakllarni ishlab chiqilishiga ta'sir etgan. Bu mamlakatning qimmatli qog'ozlar, bank hamda moliyaviy tizimida o'zgarishlar bo'lishiga olib kelgan bo'lsa-da, mazkur davriy boshqaruv qancha tez ish boshlansa shunchalik katta ustunlikka ega bo'lish imkoniyatini anglatardi. Bu iqtisodiyot nazariyasida alternativ xarajatlar tushunchasini takomillashtirib, asosiy qiyoslama temir yo'l transporti orqali ko'rsatiladigan xizmat bo'lgan.

AQSh iqtisodchi olimi E.Jonsonning fikriga ko'ra, "temir yo'l transporti xizmati har bir mamlakatning bank faoliyatini va uning moliyaviy qudratini belgilab bera oladi" [8, 65-6]. Mazkur mulohazaning kelib chiqishi mam-



lakatning temir yo'lini qurishga ajratuvchi mablag'i va uni xizmatlar turi bilan mustahkamlab, muqim o'ringa ega bo'lish bilan bog'liq motivni ifodalaydi.

Yuqoridagi temir yo'l va uning iqtisodiy faoliyati mamlakatlarning qudratini hamda texnologik ravnaqini belgilovchi mezon sifatida 1897-yildan boshlab ilgari surila va taqqoslanmasi bo'la boshladi. Bu o'z navbatida temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish faoliyatini alohida tariflarga, o'lchov me'yorlariga hamda tasniflarga bo'lishga yetakladi. Xususan, 1897-yilda ingliz iqtisodchi olimi Akwors tomonidan temir yo'l tariflari tasnifi va uning iqtisofiy-moliyaviy ahamiyatiga tegishli maqolasi nashr etilgan. Unga ko'ra muallifning fikrlaridan kelib chiqqan holda temir yo'l ijtimoiy xizmatni qoplay olishi uchun xizmat ko'lamini kengaytirish va uning tariflarini yuridik jihatdan asosli taqsimot asosida olib borilishi lozimligini ta'kidlagan ^[9]. Mazkur mulohazaning o'zlashtirilma shaklini bugungi kunda o'ta taraqqiy etganini ko'rish mumkin bo'lib, uning kelib chiqishiga temir yo'l transporti sanoat tarmog'i hamda uning xizmat sohasi turtki bo'lgan. Natijada, temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish keskin rivojlandi. Jumladan eksport, bo'xona, g'aznachilik singari faoliyatning yangicha xizmatlari xalqqa va tadbirkorlarga korsatila boshlandi.

443 ta temir yo'l transportida xizmat ko'rsatishga 659 ta tarif shakllantirilgan bo'lib, undan dastlab AQSh foydalangan, so'ngra mazkur ko'rsatma global miqyosda ommalashib, Shvetsariya, Germaniya, Angliya, Fransiya singari mamlakatlarda keng tadbqiq qilina boshlangan. 1907-yilga kelib, temir yo'l transporti Yevrosiyo, Shimoliy Amerika hududlarini batamom egallaydi ^[10].

1910-yilda Shvetsariyada temir yo'l stansiyalarida chipta sotuvchilaridan tashqari ma'lumot beruvchilar xizmati bilan faoliyat yuritishni kengaytirishga muvaffaq bo'lishadi. Bu o'z navbatida 1915-yilda uzluksiz xizmat ko'rsatishga o'tishni taqozo etganligi bois, smenali ish faoliyati rejimiga o'tilishiga turtki bo'ladi.

Dastlab bu tartib kuniga 14 soatdan davom etgan, so'ngra 1916-yilda 12 soatga o'tilgan ^[10]. 1915-yilda F.Dikson AQSh iqtisodchisi tomonidan temir yo'l hududlararo soatlarning farqlari temir yo'l peshtaxtalarida turli hududlarning nomlanishi ostida ularning joriy vaqtdagi soati nechchini ko'rsatishi keltirila bosshlandi ^[11]. Bu xizmatlarning detallashib, insoniyat uchun qulaylik va uning asosiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda takomillashib borganligini namoyon etadi. Jumladan, temir yo'l transportida insonlarga xizmat ko'ratishda mulkini talon-taroj qilinishini oldini olinishi uchun nazorat va tartibot hodimlarini yollash, shuningdek, ularni turli tillarda gaplasha olishi uchun alohida o'qitilganligi bilan asoslash mumkin. Shu bilan bir qatorda, temir yo'l transportida xizmat ko'rsatishning jihozlarga alohida ahamiyat berilishi, uning vagonlararo joylashuvi hamda logistik munosabatlar yangi bosqichda faoliyat olib borishni boshladi.

XX asrda butun dunyo iqtisodiyot tizimida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Muqobil transport texnologiyalari, ayniqsa, umumiy foydalanish holatidagi avtomobil yo'llaridan foydalanadigan avtomototransport vositalari soni ko'paydi. Umuman texnologiyada va unumdorlikda yutuqlar oshib, masofani o'tish uchun real xarajatlar pasayib ketdi, bu esa bozor markazlari o'rtasidagi savdo va raqobatning kuchayishiga olib keldi. Aholi sonining ko'payishi, shuningdek, daromad darajasining o'sishi kuzatildi. Bu yanada keng va ko'lamli bozorlarga olib keldi. Bu temir yo'l transportida vositalarining bohsqarilishi va jadvalini ishlab chiqishni taqozo etib, "transport masalasi"ni iqtisodiy matematikaga asoslangan uslubni modellastirishga olib keldi. Bunda temir yo'l transporti orqali xizmat ko'rsatishda muqobil yo'llar trayektoriyasini tuzish hamda gavjum shaharlarga kirib borishga ehtiyojni oshishiga olib kelganligini aytish mumkin.

Dastlab temir yo'l transporti aralash holda ham odamlarni ham resurslarni tashish bilan xizmat ko'rsatgan bo'lsa, transport masalasi ishlab chiqilgandan so'ng temir yo'l kompaniyalari xizmat ko'rsatishni segmentlay boshladilar. Unga ko'ra turli xomashyo va materiallar, oziq-ovqat ta'minoti resurslari va hayvonlarni tashishni odamlarni tashishdan holi tarzda amalga oshirish lozimligi va bunda uning samaraliroq ekanligini e'tirof etdilar.

Ingliz iqtisodchi olimi D.Nup fikriga ko'ra, temir yo'l transportining kelajagi texnologik rivojlanishi uchun uning sanoat va insonlarga xizmat qilishini tasniflash orqali imkoniyat berilishi natijasida, temir yo'l xizmati boshqa tarmoqlarga ham kirib borishiga erishishi mumkinligi bilan izohlangan ^[11]. Bu 1925-yildan alohida olib borila boshlangan jarayon va tajriba shuni namoyon etdiki, insonlar temir yo'ldan foydalanishda uning sanoatning konchilik, ichki tashish vositasi hamda resurslarni yetkazib berish, import va eksport faoliyatini har bir sohasiga tegishli tarda daromad keltira boshlandi. Bu mamlakat budjetini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib, sih o'rinlarining oshishi, xizmatlarning mustahkamlanishi uchun tarmoqlararo hamkorlik va mutanosib ish tarzining olib borilishiga turtki bo'ldi. Xususan, lokomotivlar, metropoliten, elektrichka, ekspress hamda vagonlar, konteynerli vagonlar singari turlarni uch yirik guruhga jamoat, sanoat va tashkilotlarning foydalanishi uchun hamda shahar temir yo'llari (metropoliten va tramvay) transportlariga ajratildi.

Temir yo'l transporti taraqqiy etib borishi davomida xizmatlar va ularning turlaari ko'payib borgani sari nazorat qilish darajasi sustlashib, ichki ishlar hodimlarni jalb etishga ehtiyojni oshirdi. Bu o'z navbatida har bir temir yo'l transportidan foydalanishda yo'lovchilarning huquqiy majburiyatlari hamda xitloflarining ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. Buning oqibatida temir yo'l xizmatida yo'lovchilarga qat'iy nazorat hodimlari har bir vagonlarda joylashtirila boshlanib, ularning xizmat ko'rsatishi emas, balki vagonning ichki tartibini nazorat va yaxshilashga qaratila boshlangan.



Temir yo'l transportidan foydalanishning yagona raqibi suv transportida xizmat ko'rsatilishidan foydalanish bo'lib, temir yo'llarni suv ustida qurishga erishilgan. Albatta bu barcha joyda keng imkoniyatlar ochib bermagan, negaki, suv sathining izn beruvchi texnik-iqtisodiy sharoiti va xossalari yirik hajmni tashkil etmagan. Bu temir yo'l transportiga investitsiya qilishga turtki bo'lib, suv havzalarining ustidan ko'priksimon ko'rinishda temir yo'llarni barpo etishga qaratilgan.

Shafman tomonidan mamlakat hukumatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi mulozalar bildirilgan bo'lib, uning fikriga ko'ra mazkur sohani muntazam nazorat qilish hamda uning taraqqiy etishi xizmatlarni ko'paytirish emas, balki barcha yuk tashuvchilarni keng jamoat ishiga targ'ib qilishga aytilanadi ^[13].

Temir yo'llarni va undagi xizmat ko'rsatishni tartibga solishning tajribasi o'sha paytdagi iqtisodchilarning bashoratlarini tasdiqladi, ya'ni, garchi ba'zi kutilmagan hodisalar bilancheklangan miqyosdagi iqtisodlarning dalillari ko'pchilik iqtisodchilar sodir bo'ladigan alyans va konsolidatsiya ko'lamini oldindan ko'ra olmasligini anglatardi. Bu o'z navbatida transport turlari o'rtasida sezilarli darajada qayta taqsimlash jarayonini faollashtirdi. Raqobat maydonida bu sezilarli ta'sir ko'rsatishda chetlab o'tmay, deregulyatsiyadan olingan foyda samaradorlikni oshirdi va temir yo'l xizmati bozorlarni munosib rag'batlantirdi.

Tartibot ishlarini yirik guruhlardan biri bo'lgan sanoat va tashkilotlarga xizmat ko'rsatishda yuk tashuvchilarning har bir temir yo'l transportiga joylangan vositalarni kirish va chiqishini nazorat qilish funksiyasini ilk bora 1926-yilda R.Viker tomonidan taklif etilgan bo'lib, unga ko'ra oziq-ovqat mahsulotlarini tashishda qabul qilish va uning manzilga yetgunga qadar zaruriy harorat, sharoit va joriy holatini yaxshilash yuzasidan foydalanish, uning faollashtirilishi natijasida temir yo'llarda gigiyenik xizmat ko'rsatishga da'vat etuvchi an'ana shakllantirilishiga manzilli qaratilgan.

Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatishda temir yo'l kompaniyalari egalari va muhandislari tomonidan muzlargich ko'rinishida foydalanishda muzdan ishlatganliklari hamda ularning tarkibiy va holatiga ko'ra nazoratdan o'tkazib, uni qabul qilish va qilmaslik yuzasidan xizmat ko'rsatishga astoydil erishildi. Natijada, temir yo'l transportida xizmat ko'rsatishda yotoqli joylar uxlashga moslashtirilgan holda kengaytirildi. Shuningdek, odamlarni tashish vagonlarida oziq-ovqat bilan ta'minlash vagoni hamda hodimlari bilan to'ldirildi. Bu xizmat ko'rsatishda har tomonlama poyezdlarning imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor berilganligini anglatadi.

Ta'kidlash joizki, temir yo'llarning (aniqrog'i, ularning ma'lumotlarining) umuman iqtisodchilar uchun empirik xarajatlar tahlilining rivojlanishiga ta'siri tobora ortib borishi natijasida ko'plab xususiy temir yo'l kompaniyalari o'zlarining operatsiyalari va xarajatlari haqida statistik ma'lumotlarni taqdim etishlari zarurati yuzaga keldi. Bu dispetcherlik va operatorlik faoliyatini xizmat sifatida takomillashuviga turtki bo'ldi. Ushbu ma'lumotlar xazinasini temir yo'l transportida xarajatlar xususiyatlarini tahlil qilishga iqtisodiy hamda moliyaviy jihatdan yordam berdi, shu jumladan xarajatlar va ishlab chiqarish funktsiyalarining dastlabki empirik tadqiqotlari olib borilishi orqali xizmatlarni kengaytirish va ularni modelashtirishda axborotdan samarali va o'rinni foydalanildi. Bunda xalqaro tariflar va xalqaro xizmat ko'rsatish darajalarini tasnifi shakllantirdi.

"Tartibga solishdan umidsizlik va umuman transport sanoatida raqobat kuchlarining kuchayishi temir yo'l bozorlari barcha bozorlarda kuchli raqobat muhitida ishlashi mumkin degani emas", degan mulohaza nemis olimi P.Vol tomonidan bildirildi ^[11]. Hatto juda katta markazlarga ham bir nechta temir yo'llar xizmat ko'rsatishi mumkin". Shu bois, kompaniyalar temir yo'l xizmatini ko'rsatishda har bir stantsiyada tegishli ta'minot hodimlari hamda ichki mexanik hodimlarini yollash, bir nechta temir yo'l kompaniyalariga barterli iqtisodiy faoliyatni taklif etish orqali ustunliklarini zabt etgan.

Ko'plab mamlakatlar xususiy tadbirkorlikning qoidalari va tartibga tayanishdan ko'ra, temir yo'llarning bevosita davlat egaligi va ekspluatatsiyasi tanlovini ma'qul ko'rishdi. Bu tajribaviy jarayonlarni birinma-ketin amalga oshirishga yetaklab, ko'plab mamlakatlarning ikkala variantni ham sinab ko'rishga muvaffaqa bo'lganliklaridan kelib chiqqan holda butun dunyoda temir yo'llarni tashkil etish va ularni ishlatish usullarida juda ko'p farqlar mavjudligini qayd etdilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy traktatlarning majmuaviy uyg'unligini ta'minlagan holda o'z davrining eng nufuzli yozuvchilarining ish to'plamlari, mahalliy amaliy qo'llanmalar, formulalar, oddiy asarlar, risolalar, maktublar, nutqlar va boshqa asarlariga tayangan holda misollar keltirilib, temir yo'l transporti iqtisodiyotini korrupsiyadan hamda parokandaligidan undagi xizmatlarning taklif etilishi qutqara olishini asoslagan. Natijada, temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirishni asoslashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari dolzarflikni kasb etdi, biroq ularni risolalar, maqola va eshittirishlarda e'lon qilinishi mamlakatning strategik axborotining tarqatilishini anglatgani bois, bu kabi ma'lumotlar XX asrga yaqin ilm ahliga havola qilina boshlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekistonda xalqaro turizm va temir yo'l infratuzilmasining istiqbollari. Xalqaro forum. Jizzax. 2018-yil, 29–30-avgust.
2. Jo'raboyev N.Yu. O'zbekiston transport-yo'l tizimidagi islohotlar. //TAYI Xabarnomasi. 2016. 2-3 son, 124-bet.
3. Lardner D. Railway Economy: A Treatise on the New Art of Transport, Its Management, Prospects and Relations.. – Scholarly Pub Office Univ of, 1850.
4. Chadwick E. Address on Railway Reform. By Edwin Chadwick. – Longmans & Company, 1865.
5. Wellington A. M. The economic theory of the location of railways: an analysis of the conditions controlling the laying out of railways to effect the most judicious expenditure of capital. – J. Wiley & sons, 1887.
6. Hadley A. T. Railroad transportation: Its history and its laws. – GP Putnam, 1895.
7. Кули Ч. Теория транспорта //Публикации Американской экономической ассоциации. – 1894. – Т. 9. – №. 3. – С. 13-148.
8. Johnson, E. R. (1895). The Industrial Services of the Railways. The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science, 5(6), 69-86.
9. Acworth W. M., The Theory of Railway Rates, The Economic Journal, Volume 7, Issue 27, 1 September 1897, Pages 317–331
10. Newcomb, H. T. "The Diminished Dollar and Railway Rates." The North American Review, vol. 189, no. 641, 1909, pp. 561–72. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/25106337>. Accessed 10 May 2024.
11. Schumpeter, Joseph, et al. "Railway Rate Making: Discussion." The American Economic Review, vol. 4, no. 1, 1914, pp. 81–100. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/1827705>. Accessed 10 May 2024.
12. Sharfman I. L. Railway Regulation: An Analysis of the Underlying Problems in Railway Economics from the Standpoint of Government Regulations. – La Salle extension university, 1915.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.